



TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING NAZARIY JIHATLARI

**Normetov Bobur
Sharifboyevich**

*"Mikrokreditbank" ATB Kreditlarni ma'qullash
departamenti menejeri*

Moliyaviy barqarorlik masalasining nazariy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushunchaning aynan bank faoliyatiga tatbiq etilgan yagona ta'rifi mavjud emas. Bu holat moliyaviy barqarorlik konsepsiyasini chuqurroq ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, tijorat banklari moliyaviy barqarorligining mohiyatini aniqlashdan avval, uni umumiy tashkilotlar faoliyati kontekstida tushuntiruvchi yondashuvlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Moliyaviy barqarorlik tushunchasiga nisbatan bir-birini to'ldiruvchi, ammo zid bo'lмаган bir nechta yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Natijaviy yondashuv – bu yondashuvga ko'ra, moliyaviy barqarorlik korxonaning ijobiy moliyaviy natijalari (foyda va kapitalning o'sishi) bilan izohlanadi. Bunday holat korxonaga o'z majburiyatlarini ichki (o'z) manbalar hisobidan bajarish imkonini beradi.

Resurs yondashuvi – moliyaviy barqarorlik korxonaning yetarli moliyaviy resurslarga egaligi bilan tavsiflanadi. Hatto salbiy vaziyatlar yuzaga kelganda ham, bu resurslar hisobiga normal ishlab chiqarish faoliyatini davom ettirish mumkin bo'ladi. Ayrim mualliflar bu yondashuvga tashqi manbalarga moliyaviy mustaqillik sharti bilan to'ldiradi.

Himoya yondashuvi – bu yondashuv moliyaviy barqarorlikni korxonaning ichki va tashqi salbiy ta'sirlarga qarshi turish qobiliyati, ya'ni moliyaviy "xavfsizlik yostiqchasi" sifatida ko'radi. Bu holat, ayniqsa, o'z mablag'lariga tayangan holda barqarorlikni saqlab qolishga qaratilgan.

Yuqorida yondashuvlarga tayangan holda, tashkilotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun quyidagi asosiy shartlarni ajratish mumkin:

– istalgan vaqtda ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom ettirishga imkon beruvchi yetarli miqdordagi moliyaviy resurslarning mavjudligi;

– moliyaviy resurslar tuzilmasida o'z mablag'larini ulushining 50 foizdan ko'proq bo'lishi, bu esa tashqi qarzlardan mustaqillikni ta'minlaydi.

Mazkur shartlarni tijorat banklari faoliyatiga to'liq qo'llash har doim ham mumkin emas. Shu bois, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini o'rganish va unga xos xususiyatlarni aniqlash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Garchi bu

tushuncha ilmiy adabiyotlarda va kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarda tez-tez uchrasha-da, hanuzgacha uning yagona va aniq ta'rifi mavjud emas.

O. Ovchinnikova va A. Bets fikriga ko'ra, moliyaviy barqarorlik bankning nafaqat an'anaviy, balki yangi paydo bo'layotgan funksiyalarni ham tashqi sharoitlardan qat'i nazar bajarish imkoniyatini anglatadi [1].

Shu bilan birga, S. Urazov bank moliyaviy barqarorligini bankning o'z faoliyat parametrlarini muayyan chegaralarda saqlab turish, turli beqarorlashtiruvchi omillar ta'siridan keyin muvozanat holatiga qayta olishi qobiliyati deb qayd etadi [2].

G. Melikyan "moliyaviy barqarorlik" tushunchasiga ikki darajada yondashuvni ajratib ko'rsatadi [3].

Mikrodarajada bankning moliyaviy barqarorligi – bu uning mijozlar oldidagi vazifalarini bajara olish qobiliyatidir.

Makrodarajada esa bu – butun bank tizimining turli iqtisodiyot sohalarida yuzaga keladigan inqiroz holatlarini yengib o'tishi va faoliyatini davom ettira olishidir. Bu bilan iqtisodiy subyektlar (aholi, investorlar va boshqalar) o'zlarining jamg'arma, investitsiya va boshqa rejalar bo'yicha qarorlar qabul qilishga majbur bo'lmaydilar.

T. Kopan va K. Mino bankning moliyaviy barqarorligini — salbiy tashqi shoklardan so'ng o'zining asosiy funksiyasi, ya'ni jamg'armalarni kreditlarga aylantirish mexanizmini tezda tiklay olish salohiyati sifatida izohlaydilar [4].

Iqtisodiyot fanlari doktori K. Tixonkov esa bank barqarorligini — bankning kutilmagan o'zgarishlarga moslasha olish va vaqt o'tishi bilan o'z funksiyalarini deyarli o'zgartirmasdan samarali bajarish qobiliyati deb hisoblaydi [5].

A. Muratining ta'rifiga ko'ra, moliyaviy jihatdan barqaror bank:

- o'z maqsadlari va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq rivojvana oladi;
- tashqi va ichki muhitdagi, shu jumladan salbiy omillar ta'sirida ham o'zining tashkiliy yaxlitligini, funksionalligini va majburiyatlarini bajarish imkoniyatini saqlab qoladi [6].

Bu yondashuv bank barqarorligini nafaqat moliyaviy manfaatlarni himoya qilish, balki korporativ ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham samarali amalga oshirish vositasi sifatida talqin qiladi.

Fikrimizcha, moliyaviy barqarorlik tushunchasi bank faoliyatiga xos jihatlari bilan boshqa tashkilotlardan farqlanadi va uni yagona ta'rifda ifodalash hali ham murakkabligicha qolmoqda. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda natijaviy, resurs va himoya yondashuvlari asosida umumtashkiliy mezonlar aniqlansa-da, banklar uchun bu yondashuvlarni to'liq tatbiq etish imkoni cheklangan. Moliyaviy barqarorlikni bankning kreditga layoqatlilagini saqlab qolish, salbiy tashqi omillarga bardosh berish, asosiy funksiyalarini davom ettirish, shok holatlaridan keyin muvozanatga qayta olish sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Овчинникова О. П., Бец А.Ю. Основные направления обеспечения динамической устойчивости банковской системы // Финансы и кредит. 2006. № 22.
2. Уразов С.А. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты // Банковское дело. 2006. № 12.

3. Меликьян Г.Г. Актуальные вопросы капитализации, устойчивости и конкурентоспособности российского банковского сектора. XVI Международный банковский конгресс.
4. Копан Т., Миноу К. Устойчивость кредитования // Финансы и развитие. 2013. № 3.
5. Тихонков К.С. Обеспечение устойчивости и безопасности банковской системы России при переходе к модернизационному развитию. М.: 2010.
6. Мурати А.И. Оценка и обеспечение устойчивости банков на основе контрольных параметров их деятельности. СПб. 2012.